

ABU ALI IBN SINO ME'ROSLARIDAN FOYDALANISHDA INSON SALOMATLIGI VA TABIATGA DOIR TA'LIMOTLAR

*Umirzaqova Gulmira Egamberdi qizi*

*Student of Termez State Pedagogical Institute*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada biologiya fani darslari bo'yicha Abu Ali ibn Sinoning qarashlaridan foydalanish samarali natija berishi ta'kidlangan bo'lib, tabiat va inson salomatligiga oid bilimlarning shakllanishi natijasida, ular tarbiyasida atrof-muxit, tabiatga mas'uliyatli munosabatda bo'lish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** biologiya, natija, tabiat, inson, salomatlik, bilim, shakllanish, tarbiya, ko'nikma

**Asosiy qism.**

Ibn Sino shunday deb yozgan edi: "...Salomatlik – bu qobiliyat va holat bo'lib, uning tufayli ularni amalga oshirish uchun mo'ljallangan vazifalar (organ) benuqson bo'ladi"



Salomatlik va kasallik tibbiyotdagi ilmiy bilimlarning asosiy kategoriyasidir. Odatda ular tibbiy va ijtimoiy xususiyatga egadir. Toifalar "salomatlik" va "kasallik" - bu shaxsning ijtimoiy jihatdan aniqlangan holatlaridir. Ayni paytda bu toifalar aniq tibbiy va biologik asosga ega, chunki insonning o'ziga xosligi uning tabiati biologik ekanligini anglatadi. Inson o'zining barcha ehtiyojlarini fiziologik tizimlarning ishlashi orqali amalga oshiradi va biologik substratsiz hech qanday ijtimoiy narsa amalga oshirilmaydi. Boshqacha aytganda, inson biologik substrat ijtimoiy mohiyatni amalga oshiruvchidir.

Ma'lumki, jaxon sivilizatsiyasiga bebaxo xissa qo'shgan, o'zlarining o'lmas asarlari bilan musulmon olami tarixi va ilm-madaniyati, axloqiy rivojiga kuchli ta'sir qilgan Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshka buyuk mutafakkirlar o'z asarlarida yosh avlodda imon, vijdon,

halollik, poklik, mehnatsevarlik singari fazilatlarini shakllantirish g'oyasini ilgari surganlar, ularning me'roslari metodologik ahamiyatni kasb etadi. Buyuk mutafakkir Abu Rayxon Beruniyning fikricha, komil inson sifatleri - bilimlilik, ahlokiy poklik, yaxshi hulq, ma'naviy yetuklikdan iborat.

Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy xarakterlaridandir. Chunki, ilm odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. O'sib kelayotgan avlodning har tomonlama barkamol bo'lishini ta'minlash uchun o'qitishning ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlari birligini kuchaytirish zarurdir. Beruniy «Hindiston» kitobining yettinchi bobida ma'rifat va bilimdonlik darajasi, kishilarning mulohaza yuritish holati to'g'risida fikr bildiradi. Bir ustoz o'z shogirdlari bilan qorong'i kechada yo'l bosib borar edi. Ular yo'l buyida tik turgan bir narsaga duch keldilar. Ustoz shogirdlaridan uning nima ekanini aytishni talab etadi. Shogirdlaridan biri bilmayman deb, ikkinchisi bilmayman va bilishga qudratim yetmaydi, deb javob beradi. Uchinchisi tong yorishsa, ma'lum bo'ladi deydi. Qo'qinchli narsa bo'lsa, tong yorishishi bilan yuqolib ketadi. Qo'rqinchli narsa bo'lmasa, ahvoli bizga ravshan bo'ladi, deb javob qildi. Beruniy uch shogirdning ahvolini, qobiliyatini ularning javoblaridan bilib oladi; olimga birinchi shogirdning ilmsizligi, ikkinchisini ishni keyinga surishi, uchinchisi esa ilmsiz bulsa ham, ma'rifatga intilishi namoyon bo'ladi. Demak, har bir narsaki aniq, sinchiklab o'rganish, bilish, bundan so'nggina bir xulosaga kelish kerak. Beruniy bu ishda tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi, nodonlik, erinchoklik, ilmsizlikni tanqid qiladi. Beruniy kishilar hayotidagi yomonlikni qoralaydi. Uning fikricha, bu illatning yuqotishning asosiy yuli uning ildizlarini topish va kesib tashlashdir. Yomonlikning shoxobchalari ko'p, ammo ularning asosi uch narsa: ta'ma, gazab va ilmsizlikdir. Bu asoslarning negizi esa ishtaxa va g'azabdir. Ishtaxa insonga eng kuchli va eng halokatli dushman bo'lib, insonni ov-qatlarni tanovul qilish lazzati uch olish zavqi bilan aldaydilar. Olimlarning tushuntirishicha, bu illatlar, ranj va gunohga olib keladi. Ularning ta'siriga berilib ketgan kishi insoniylik qiyofasini yuqotadi. Beruniy bunday kishilarni yirtqichga, to'rt oyoqli hayvon, xattoki shayton va iblis hisoblaydi. Beruniy rostgo'ylik, to'g'ri so'zlikni ulug'laydi, yolg'onchilikni odamlar o'rtasiga nizo soluvchi illat sifatida qoralaydi.

Olimning uqtirishicha, biror kishi keltirgan xabarni ko'z bilan ko'rish, bilish, u haqida aniq tasavvurga ega bo'lish kerak, -degan fikrlarni ilgari suradi. Beruniyning fikricha, yoshlar kasb-hunar va ish tajribaning ibtidosiga ega bo'lganlaridan keyin, ularni asta-sekin egallashda yuqorilay boradilar va nazariy bilimlarini mantiqiy fikrlash yo'lida ishlatishga odatlanadilar. Shu tartiba bolalarga ilmlarni o'rgatish yo'li bilan ular to kamolga yetguncha ta'lim-tarbiya qilinadi. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad savodsizlikka barham berishdir. Mutafakkir ilmi bo'lish, yaxshi inson bo'lish oson emasligi va bu esa faqat chidam bilan qilingan mehnat maxsuli ekanligini ta'kidlab: "Daryolarning doimo dengiza quyilishi uning suviga ta'sir ko'rsatmaganidek, amal va lazzat - haqiqiy ilm oluvchiga ta'sir ko'rsata olmasligi kerak"- deydi. Umuman, Abu Rayxon Beruniy ilm-fanning buyuk xomiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning baxti esa uning bilim va ma'rifatida

deb bildi. Yaratgan asarlarida u ta'lim-tarbiyaga doir she'r va hikoyalardan misollar keltirib, ular orqali xar bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra xayr-ezgulikka intilishi, sun'iy obru, shuxrat qozonish uchun muravvat va sharofat ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

Miloddan keyin Yevropada Xristian dinining vujudga kelishi bilan tabiiy fanlar inqirozga uchragan bir davrda O'rta Osiyo olimlari uni rivojlantirdilar va olg'a surdilar, o'quvchilarni Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino faoliyati bilan tanishtirilar ekan, ularning xizmatlarini alohida ko'rsatib utish kerak.

Endi Avitsenna nomi bilan yuritilgan O'rta Osiyoning boshqa mashxur olimi Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati haqida so'z yuritamiz. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlogida tug'ildi (980-1037) va Beruniy kabi tabiiyot fanining turli sohalariga ko'p e'tibor berdi, biroq tibbiyotning asoschilaridan biri sifatida katta shuhrat qozondi. Yunon olimlarining asarlari bo'yicha ta'lim olgan ibn Sino faqat faktlarga asoslangan fanni tan olardi. U urta asr Sharqining tibbiyot bilimlarining entsiklopediyasi bo'lgan dunyoga mashxur "Tib qonunlari"ning muallifidir.

\* Birinchi kitobda odam tanasi organlarining tuzilishi va funktsiyalari, turli kasalliklarning chiqib kelish alomatlari va davolash usullari bayon etiladi.

\* Ikkinchi kitob oddiy dorilar va ularning odam organizmiga ko'rsatgan ta'siriga bag'ishlanadi. Bu kitobda 80 dan ortiq oddiy dorilar, ularning xususiyatlari, tayyorlash va qo'llanish usullari bayon etiladi.

\* Uchinchi kitobda kasalliklar va ularni davolash usullari haqida gapiriladi.

\* To'rtinchi kitobda jarroxlik masalalari (suyaklarning chiqishi va sinishlarini davolash) haqida so'z yuritiladi va shu yerda isitma haqida umumiy ta'limot bayon etiladi.

\* Beshinchi kitobda murakkab dorivor moddalar, zaxarlar va zaxarlarga qarshi ishlatiladigan moddalar haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Ibn Sino inson salomatligini mustaxkamlashda va organizmni kasalliklardan saklashda jismoniy mashklar, tugri ovqatlanishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, odam xar bir kasalligining tabiiy sabablari bor. Masalan, u Buxoro va uning atrofida keng tarqalgan rishta kasalligining sababchisi tirik organizmdir deb hisoblaydi. Ibn Sino qizamik, chechak, vabo, sil kabi yukumli kasalliklarning sababchilari ham ko'zga ko'rinmaydigan tirik jonivor (mavjudot) larning faoliyatiga bogliq deb faraz qildi. Evropaning ilgor kishilari ibn Sino aytgan fikrlarga kelgunlaricha bir qancha asrlar utdi. XVIII asrning mashxur tabiatshunosi K.Linney Ibn Sinoni hurmatlab, tizimgullilar oilasiga kiruvchi doim yashil bulib turadigan o'simlikka Avitsenniya degan nom berdi. Mashxur olim V.N.Ternovskiy Ibn Sinoning "Qonun"ni haqida shunday yozadi: XII asrga kadar Yevropadagi deyarli barcha universitetlarida "Qonun" asosiy qo'llanma bo'lib kelgan, undan o'rganishgan va

tibbiyotni shunga qarab o'qitishgan. Ibn Sino haqida mashxur Karl Linney shunday yozadi. "Uning ta'limoti bitmas-tuganmas chashma, uning o'zi esa abadiy yashnab turgan gulshan"

Ta'lim mazmuniga milliy va umuminsoniy qadriyatlar g'oyalari singdirish asosida yosh avlodni xar tomonlama yetuk qilib tarbiyalash tarbiya jarayonining dolzarb vazifalaridan biridir. Globallashuv davrining eng muhim muammolaridan biri – o'quvchilarni inson salomatligi va tabiatga oid xavfni bartaraf etishga imkon beruvchi bilimlar bilan qurollantirishdir.

Shu jumladan, biologiya darslarida o'quvchilarni o'rta Osiyo allomalarining inson salomatligi va tabiatni asrashga oid karashlari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Ular ongida O'rta Osiyolik buyuk allomalarning inson salomatligi va tabiatni asrashga oid qarashlariga asoslangan bilimlarni hosil qilish ularda atrof-muhit, tabiatga mas'uliyatli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Biologiya darslarida inson salomatligiga oid bilimlarni berishda O'rta Osiyo allomalarining inson va tabiatga oid g'oyalariidan foydalanishda ikki muhim xolat yuzaga keladi:

-ular inson salomatligiga oid g'oyalarni ifoda etuvchi namunalar bilan tanishadilar;

-ularda atrof-muxit holatini yaxshilashga mas'uliyatli bo'lish, tabiatni asrab-avaylash to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

Inson salomatligi va tabiatni asrashga oid tushunchalarni shakllantirishda Abu Ali ibn Sino asarlari metodologik ahamiyatni kasb etadi. Alloma tomonidan yaratilgan asarlarning soni 450 dan ortiq bo'lib, ularning 80 dan ortig'i tabiat va insonning unga bo'lgan munosabati masalasiga bag'ishlangan. Abu Ali ibn Sinoning yer yuzasidagi tabiiy jarayonlar davrlar o'tishi bilan o'zgarishiga oid g'oyalari biologiya fanining rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Biologiya darsligida qayd etilgan «Hayotning organizm darajasidagi umumbiologik qonuniyatlar» deb nomlangan IV bobiga tegishli «Genetik va inson salomatligi» mavzusi mazmunini takomillashtirishda tashki muhitning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri, inson salomatligini saqlash, parhez, shaxsiy gigiena to'g'risidagi masalalar alloma tomonidan yaratilgan «Tib qonunlari» asariga singdirilgan muhim g'oyalar sirasiga kiradi. Allomaning inson tanasida kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri suv, yer va havoda mo'tadillikning buzilishi bilan bog'liqligi, yashash joylarining torligi, ozoda bo'lmasligi, yuqumli (moxov, chechak, vabo isitmasi, yiring, toshma kabi) kasalliklarning tez tarkalishi uchun qulay sharoit yaratishi, yuqumli kasalliklarning aholi zich joylashgan joylarda havo va boshqa omillar orqali yuqishiga doir ilmiy xulosalari, hozirgi davrda ham muhim ijtimoiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Mutafakkirning «Agar havoda chang va g'ubor bo'lmaganida edi, inson ming yil umr ko'rgan bo'lar edi»g' degan mashxur fikri esa o'quvchilarda xavoni ifloslantirmaslik, atrof-muxitni ozoda saqlash va tabiatga ziyon yetkazmaslikga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga yordam beradi.



Mutafakkir badantarbiyani kishining yoshi, salomatligi va kasalligi holatini hisobga olib, turli usullarda o'tkazish kerakligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik davrida inson jismoniy mashg'ulotlarga turlicha munosabatda bo'lish kerak. Ibn Sino ta'kidlaydiki, «Jismoniy mashq kishining ketma-ket chuqur nafas olishiga majbur qiladigan ixtiyoriy harakat» ekanligini qayd etgan holda muntazam ravishda badantarbiya bilan shug'ullangan kishiga dard yaqin yo'lamasligi, tabibga ham, dori-darmonga ham muxtojlik sezmasligini qayd etadi. Alloma bolalar tomonidan badantarbiya bajarilayotgan jarayonda quyidagi uch holatga alohida e'tibor berish zarurligini ta'kidlaydi:

1. Terining rangiga - agar u yaxshilana borsa, mashqlarni davom ettirish mumkin, agar ter chiqa boshlasa, harakatni to'xtatish lozim.

2. Mashqlarning yengilligiga - jismoniy mashg'ulot davomida kishi tanasi yengil bo'lib tursa mashqni davom ettirish mumkin.

3. A'zolarining holatiga - agar ularning ko'pchisi davom etsa, mashqni davom ettirish. Bundan tashqari Abu Ali ibn Sino bir qator badantarbiyaning turli ko'rinishlari va ulardan inson salomatligini mustahkamlashda qanday foydalanish yo'llarini ham ko'rsatib bergan.

### **Xulosa**

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, biologiya fani darslari mazmunini takomillashtirishda muntazam Ibn Sino asarlariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, biologiya darslari mavzular buyicha mutafakkirning tabiat va inson salomatligiga oid qarashlarini o'quvchilarga yetkazib berishda integratsion (gumanitar fanlar, geografiya, biologiya) ta'lim asosida yondashish ijobiy natijalarni beradi. Ikkinchidan, o'quvchilarga biologiyaga doir bilimlarni berish jarayonida, mamlakatimizda yangi rivojlanish bosqichida (o'quvchi yashayotgan xudud misolida xam) tabiatni asrash, flora va faunani saqlash va uning inson salomatligi uchun ahamiyatga molik ishlaridan misollar keltirish maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. ABU ALI IBN SINO. TIB QONYNLAPI. I jildlik saylanma. U.Karimov, X.Xikmatyllaev. – T/1996. 542-b.

2. Alikylova M.M. BO'LAJAK O'QITYVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIPIH// Monogpafiya. - T.: 2010. -117b.

3. Inomjonovna, R. I. (2022). INTERACTIVE GAMES IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

4. Inomjonovna, R. I. (2022). CHARACTERISTICS OF UZBEK FOLK APPLIED ARTS AND THEIR PLACE IN SOCIETY. World scientific research journal, 2(1), 29-32.

5. Inomjonovna, R. I. (2022). FINE ACTIVITIES ARE THE MAIN TOOL OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN AND THE RELATIONSHIP WITH OTHER ACTIVITIES. *World scientific research journal*, 2(1), 25-28.
6. Inomjonovna, R. I. (2022). METHODS OF FORMATION OF IMAGINATION, THINKING AND CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *World scientific research journal*, 2(1), 58-62.
7. Inomjonovna, R. I. (2022). FINE ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION AS A DEPARTMENT OF INTEGRATIVE CONTENT. *World scientific research journal*, 2(1), 63-66.
8. Мурадов, Ш. К., Ташимов, Н. Э., & Рахматова, И. И. (2017). Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. *Молодой ученый*, (50), 99-102.
9. MURADOV, S. K., TASHIMOV, N., RAXMATOVA, I., & KUKIEV, B. (2017). SECHENIE POVERXNOSTEY 2-GO PORYADKA OBshchEGO VIDA PO ELLIPSU ZADANNOY PLOshchADI. *Young Three*, 50(184), 99-101.
10. Inomjanovna, R. I., & Rozibaevna, H. N. (2021). THE GREAT SILK ROAD CULTURAL LIFE. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(01), 1-4.
11. Inomjanovna, R. I. (2021). CREATIVE OPPORTUNITIES TO TEACH CHILDREN THE ART OF DRAWING WITH THE HELP OF NON-TRADITIONAL OBJECTS AND TECHNIQUES IN THE FIELD OF ART. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 19-22.
12. Рахматова, И. И. (2016). Причины, повышающие творческие способности студентов на занятиях по созданию портрета. *Учёный XXI века*, (7 (20)), 26-28.
13. Рахматова, И. И. (2016). Место и значение игры в процессе художественного воспитания. *Ученый XXI века*, 23.
14. Inomjonovna, R. I. (2022). TEACHING SCULPTURE AND ITS CHARACTERISTICS TO CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION PEDAGOGICAL FUNDAMENTALS. *Journal of new century innovations*, 11(7), 73-78.
15. Рахматова, И. И. (2022). ПРОБЛЕМА СТРЕССА В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 108-111.
16. Рахматова, И. И. (2022). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА В СФЕРЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 104-107.
17. Inomjonovna, R. I., & Erkinovna, E. N. (2023). SOCIAL PEDAGOGICAL FACTORS FOR PREVENTING AGGRESSIVE SITUATIONS CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. *Journal of new century innovations*, 12(2), 29-34.
18. Inomjonovna, R. I. (2022). CHARACTERISTICS OF UZBEK FOLK APPLIED ARTS AND THEIR PLACE IN SOCIETY. *World scientific research journal*, 2(1), 29-32.

19. Inomjonovna, R. I. (2022). THE IMPORTANCE OF AESTHETIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN. *Journal of new century innovations*, 11(2), 104-108.
20. Inomjonovna, R. I. (2022). CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. *Journal of new century innovations*, 11(7), 43-46.
21. Inomjonovna, R. I. (2022). INTERACTIVE GAMES IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS.
22. Inomjonovna, R. I., & Mahmadaliyevna, D. C. (2022). DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF USE OF ART THERAPY IN PRESCHOOL CHILDREN. *Journal of new century innovations*, 11(2), 125-130.
23. Inomjonovna, R. I. (2022). EFFECTIVENESS OF BUILDING-MAKING AND WORKING WITH CLAY TECHNOLOGY IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION. *Journal of new century innovations*, 11(2), 118-124.
24. Inomjonovna, R. I., & Erkinovna, E. N. (2023). SOCIAL PEDAGOGICAL FACTORS FOR PREVENTING AGGRESSIVE SITUATIONS CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. *Journal of new century innovations*, 12(2), 29-34.
25. Inomjonovna, R. I. (2022). FACTORS OF FORMATION OF IMAGINATION IN PRESCHOOL CHILDREN. *Journal of new century innovations*, 11(7), 69-72.
26. Inomjonovna, R. I. (2022). FORMING AESTHETIC IDEAS OF PRESCHOOL CHILDREN BY TEACHING THEM TO DRAW. *Journal of new century innovations*, 11(2), 109-112.
27. Inomjonovna, R. I. (2022). IMAGINATION OF CHILDREN THROUGH GIVING UNDERSTANDINGS OF ART TYPES TO CHILDREN AND SHAPING THINKING. *Journal of new century innovations*, 11(7), 79-84.
28. Inomjonovna, R. I. (2022). INDICATORS OF ARTISTIC CREATIVE GROWTH AND DEVELOPMENT OF AESTHETIC SENSE OF CHILDREN. *Journal of new century innovations*, 11(7), 62-68.
29. Tagaynazarova, R., & Raxmatova, I. (2020, December). LANGUAGE AND EDUCATION INTEGRATION. In Конференции.
30. Inomjonovna, R. I. (2022). SENSORY FUNDAMENTALS OF CLAY AND PLASTICINE TOY MAKING IN CHILDREN'S CREATION. *Journal of new century innovations*, 11(7), 52-56.
31. Inomjonovna, R. I. (2022). SOCIAL SIGNIFICANCE OF THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF PICTURE ACTIVITY IN PRESCHOOL EDUCATION. *Journal of new century innovations*, 11(7), 85-90.
32. Inomjonovna, R. I. (2022). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF MAKING TOYS FROM CLAY AND PLASTICLINE IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION. *Journal of new century innovations*, 11(7), 47-51.

33. Inomjonovna, R. I., & Yuzboyevna, T. M. (2022). TEACHING CHILDREN TO MAKE CREATIVE MODELS FROM DIFFERENT PLANTS. *Journal of new century innovations*, 11(7), 57-61.
34. Inomjonovna, R. I. (2022). TEACHING SCULPTURE AND ITS CHARACTERISTICS TO CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION PEDAGOGICAL FUNDAMENTALS. *Journal of new century innovations*, 11(7), 73-78.
35. Inomjonovna, R. I. (2022). THE IMPORTANCE OF AESTHETIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN. *Journal of new century innovations*, 11(2), 104-108.
36. Inomjonovna, R. I. (2022). THE IMPORTANCE OF THE TECHNOLOGY OF WORKING WITH CLAY, PAPER AND MATERIALS IN INVOLVING CHILDREN IN WORK ACTIVITIES IN THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION. *Journal of new century innovations*, 11(2), 113-117.
37. Inomjonovna, R. I. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF EDUCATORS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Journal of new century innovations*, 22(1), 125-129.
38. Рахматова, И. И. (2016). МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ИГРЫ В ПРОЦЕССЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ. *Учёный XXI века*, (7 (20)), 23-25.
39. Inomjonovna, R. I. (2023). STEAM EDUCATION IS ONE OF THE MAIN TRENDS IN THE WORLD. *Journal of new century innovations*, 21(2), 27-32.
40. Inomjonovna, R. I., & Xolmirzayevna, X. N. (2023). TYPES, METHODS AND METHODS OF TEACHING VISUAL ACTIVITY KNOWLEDGE AND APPLICATION. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(3), 92-97.
41. Inomjonovna, R. I. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PICTURE ACTIVITY IN EDUCATIONAL PERSONALITY. *Journal of new century innovations*, 22(1), 113-118.
42. Inomjonovna, R. I. (2023). HUMAN CAPABILITIES-SOCIAL DEVELOPMENT IS A PRODUCT. *Journal of new century innovations*, 22(1), 119-124.
43. Inomjonovna, R. I. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY AND IMAGINATION IN CHILDREN. *Journal of new century innovations*, 22(1), 108-112.
44. Inomjonovna, R. I. (2023). ART AS A COGNITIVE ACTIVITY IN THE LIFE OF CHILDREN. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(4), 132-137.
45. Inomjonovna, R. I. (2023). INFLUENCE OF INNOVATIVE IDEAS ON HUMAN PSYCHOLOGY IN TEACHING PAINTING TECHNIQUE THROUGH ART THERAPY. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 126-134.



46. Inomjonovna, R. I. (2023). FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF IMAGING SKILLS OF PRESCHOOL CHILDREN. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(5), 74-79.
47. Valiyev, A. N. (2018). Rahmatova II O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda loyihalash masalalarining o'rni. T.: "Xalq ta'limi" jurnali.
48. Inomjonovna, R. I. (2023). FACTORS OF WORKING WITH VIOLENT CHILDREN AND ADULTS USING ART THERAPY TECHNOLOGIES. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(5), 80-88.
49. Inomjonovna, R. I. (2023). ART-TERAPIYADA TRANSPERSONAL MODEL-INSONPARVARLIK TAMOYILLARI SIFATIDA. Journal of new century innovations, 24(1), 71-79.
50. Inomjonovna, R. I. (2023). ART-TERAPIYA JAROHAT OLGAN BOLALAR UCHUN SAMARALI DAVOLASH VOSITASI SIFATIDA (Urush, zo'ravonlik, tabiiy ofatlar paytida). Journal of new century innovations, 24(1), 80-86.
51. Inomjonovna, R. I. (2023). TRANSPERSONAL MODEL IN ART THERAPY-AS HUMANITY PRINCIPLES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 16(4), 173-181.
52. Inomjonovna, R. I. (2023). ART THERAPY AS AN EFFECTIVE TREATMENT FOR INJURED CHILDREN (During war, violence, natural disasters). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 16(4), 182-188.